

YIRIK SOLIQ TO‘LOVCHILARNI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA YO‘NALISHLAR

Sh. Jumaev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya:

O‘zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minalash, yirik soliq to‘lovchilar faoliyatini tashkil etish, soliq to‘lovchilarning soliq ma’muriyatçiliginini amalga oshirish hamda soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko‘rsatilishini tubdan takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2018 yil 28 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo‘lgan insofli, halol soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko‘zda tutilishi shart. Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatlari soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim.”¹ bu boradagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab belgilandi.

Kalit so‘zlar: soliq, byudjet, soliq ma’murchiligi, yirik soliq to‘lovchilar, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish: Soliq ma’murchiligi jarayoni o‘ziga xos tarkibga va tuzilishga ega bo‘lib, u turli-tuman faoliyatlarni (huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) qamrab oladi. Soliq tizimining qanchalik samarali ishlashi ko‘pincha soliq ma’murchiligining samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘ladi. Soliq menejmentining eng muhim elementini soliq ma’murchiligi tashkil etadi. Qayd etish joizki, soliq ma’murchiligi tushunchasi bu zamonaviy tushuncha sifatida soliq jarayonini tashkil etish va boshqarish munosabatlari tushunchasining sinonimi sifatida kirib keldi.

¹ <https://aza.uz/posts/58047> - 2018 yil 28 dekabrdagi Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси



Yangi O‘zbekiston sharoitida soliq siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu milliy iqtisodiyotimizda, qolaversa davlat byudjeti byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan nisbatan soliq to‘lovchi korxonalarga alohida soliq rejimlari sifatida soliq ma’murchiligining qo‘llanishidir. Buning bir qator sabablari mavjuddir. Birinchidan, tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyati, ishlab chiqarish quvvati hamda mamlakat g‘aznasiga qo‘sadigan hissasi bir xil bo‘lmaydi, bu ularning chuqur iqtisodiy tabaqalashuvidan dalolat beradi.

Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari

- 1 → Aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to‘lanadigan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar
- 2 → Tijorat banklari, tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari
- 3 → “Navoiy KMK” AJ, “Olmaliq KMK” AJ hamda ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar
- 4 → Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan tashkilotlar
- 5 → Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o’tgan kalendar yil yakuni bo‘yicha 100,0 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan yoki ketma-ket keladigan o’n ikki oylik davr yakuni bo‘yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari
- 6 → Uglevodorod xom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalar)
- 7 → O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shilg‘idan yo‘lovchilarini tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar
- 8 → Realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik

1-rasm. Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari.²

² “Юридик шахсларни йирик солик тўловчилар тоифасига киритишнинг мезонларини белгилаш тўғрисидаги низом” асосида муаллиф томонидан тузилган.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 12 iyulda 3172-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi. Unda esa, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari belgilab berildi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 26 iyundagi PQ-3802-son qarorida ham mamlakatimiz soliq tizimida yirik soliq to‘lovchilarga oid davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq ma‘murchiligi bilan bog‘liq ustuvor vazifalar ham belgilab berilgan. Yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma‘murchiligini tashkil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-son “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi to‘g‘risida Nizom” alohida ahamiyat kasb etadi.

Unda Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining yirik soliq to‘lovchilar faoliyatini tartibga solish masalalari ko‘rsatilgan va “joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat’iy nazar, yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma‘muriyatçiliginini amalga oshirish vazifasi yuklangan”³.

Xulosa va takliflar:

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yirik soliq to‘lovchilar soliq ma‘murchiligini yanada yaxshilash, mavjud muammolarni bartaraf qilish bilan bog‘liq quyidagi takliflarni amaliyatga joriy qilish maqsadga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019 yil 12 iyulda 3172-son bilan ro‘yhatga olingan “Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qaror bilan bilan tasdiqlangan Nizomning:

- v) bandini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-4629-sonli qarori hamda “Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag‘batlantirish va yer qa‘ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6319-sonli farmonlari

³ “Йирик солик тўловчилар бўйича худудлараро давлат солик инспекцияси тўғрисида Низом”.

talablaridan kelib chiqib, quyidagi “Qimmatbaho metallar va toshlarni, shuningdek nodir, qora va rangli metal rudalarini qazib olish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar” tahririda o‘zgartirish;

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жумаев Ш. Йирик солик тўловчиларга оид солик маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари: и.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2023
2. Ўзбекистон Республикаси Солик кодекси- Тошкент: Фафур Ғулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
3. Нормурзаев У. (2022). Ҳукуматимиз томонидан солик маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солик ислоҳотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инноватсіон технологиялар, 10(5), 325–330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35
4. Нормурзаев У. (2021). Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в узбекистане. Экономика и образование, (6), 82–86. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>.